



ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 2-son

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

ISSN

3093-9089

Бухоро - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№ 2-Son 2026-yil

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan

BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Olimov Shirinboy Sharofovich — pedagogika fanlari doktori, professor
(Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasini mudiri).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Safarov Dilmurod Xalimovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo‘yicha direktor
o‘rinbosari)

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo‘yicha
birinchi prorektor).

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini professori).

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrasini dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti
Psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi

EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o'g'li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Valeriy Vladimirovich Kuleshov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Elena Vasilyevna Andrienko — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Tatyana Aleksandrovna Romm — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Shirinboy Sharofovich Olimov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the "Pedagogy" Department).

Lochin Rustamovich Zaripov — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improvement of Educational and Methodological Activities).

Dilmurod Xalimovich Safarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

Akmal Mardonovich Nazarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Bukhara State University, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work).

Shavkat Shuhrat o'g'li Rustamov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Head of the "Psychology" Department).

Feruz Furqatovich Ganjiyev — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the "Psychology" Department).

Dilafruz Tuymuratovna Ismatova — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, "Psychology" Department).

Sodiqjon Saidjonovich Mukhlisov — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, "Information Systems and Digital Technologies" Department).

Muxtor Hasan o'g'li Tilavov — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, "Psychology" Department).

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.



ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андрienко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационных и технологических наук, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарных и социальных наук, г. Новосибирск, Россия).

Олимов Ширинбой Шарофович — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

Зарипов Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления совершенствования учебно-методической деятельности).

Сафаров Дилмурод Халимович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Бухарский государственный университет, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе).

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Психология»).

Ганжиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

Исмадова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Информационные системы и цифровые технологии»).

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Sirojov Otajon Orifjonovich

Navoiy davlat universiteti “Sport faoliyati turlari” kafedrası dotsentip.f.b.f.d.(PhD)

TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISHNING INTEGRATIV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘quv faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish jarayoni hamda uni takomillashtirishning integrativ mexanizmlari ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta’lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida an’anaviy va innovatsion pedagogik yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, raqamli ta’lim platfomalari, masofaviy va aralash ta’lim modellarining didaktik imkoniyatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, integrativ mexanizmlar, o‘quv faoliyati, raqamli texnologiyalar, ta’lim jarayonini raqamlashtirish, masofaviy ta’lim, aralash ta’lim, raqamli kompetensiya, interaktiv ta’lim muhiti, pedagogik innovatsiyalar, ta’lim samaradorligi, o‘quv motivatsiyasi.

Аннотация. В данной статье с научно-методических позиций анализируется процесс организации учебной деятельности студентов в высших образовательных учреждениях на основе цифровых технологий, а также интегративные механизмы его совершенствования. В ходе исследования раскрываются особенности взаимной интеграции традиционных и инновационных педагогических подходов в условиях цифровизации образовательного процесса, а также дидактические возможности цифровых образовательных платформ, дистанционных и смешанных моделей обучения.

Ключевые слова: цифровое образование, интегративные механизмы, учебная деятельность, цифровые технологии, цифровизация образовательного процесса, дистанционное обучение, смешанное обучение, цифровая компетентность, интерактивная образовательная среда, педагогические инновации, эффективность образования, учебная мотивация.

Abstract. This article provides a scientific and methodological analysis of the process of organizing students’ learning activities in higher education institutions based on digital technologies, as well as the integrative mechanisms for their improvement. The study highlights the features of the integration of traditional and innovative pedagogical approaches in the context of digitalization of the educational process, and reveals the didactic potential of digital educational platforms, distance learning, and blended learning models.

Key words: digital education, integrative mechanisms, learning activities, digital technologies, digitalization of the educational process, distance learning, blended learning, digital competence, interactive learning environment, pedagogical innovations, educational effectiveness, learning motivation.

Kirish. Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ta’lim tizimining zamonaviy tendensiyalari qatorida xalqaro hamkorlik va o‘quv faoliyatini raqamli texnologiyalar negizida rivojlantirish, ta’limiy investitsiyalarni kiritish, shu asnda madaniy, siyosiy, iqtisodiy chegaralarni kengaytirish, malaka talablariga asoslangan ta’lim jarayonlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. YUNESKO va Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi tomonidan “talabalarining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni takomillashtirish, ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, ta’limni axborotlashtirish”.ga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llash vazifasi quyilgan. Bu esa, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘quv faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu jarayon nafaqat texnik vositalarni joriy etish, balki o‘quv jarayonini mazmunan qayta qurish, uning didaktik tizimlari, motivatsiya mexanizmlari va falsafiy asoslarini chuqur tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Dunyo miqyosida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar zamirida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va kreativ fikrlash, axborotni saralash

hamda qayta ishlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy izlanishlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, AQSh, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi kabi rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida onlayn platformalar, interaktiv resurslar, virtual muloqot muhitlari, multimedia vositalari asosida chet tilini o'qitish jarayonini faol, interaktiv tarzda tashkil etish imkoniyatini kengaytirish, ular orqali talabalarning o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda ravon, mantiqiy ifoda etishi, madaniyatlararo muloqot qilish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishiga mo'ljallangan tadqiqotlar tobora kengayib bormoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli muhitda o'quv faoliyatini tashkil etishda integrativ mexanizmlarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani, shuningdek, talabalarning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshirish masalalari o'z yechimini to'liq topmagan. Shu jihatdan olganda, didaktik tizimlar, raqamli texnologiyalar va ta'lim falsafasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaxlit tizim sifatida o'rganishga qaratilgan muammolarni hal etish dolzarb ahamiyatga ega.

Respublikamizda so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar orqali shaxs, uning borliq bilan falsafiy aloqalari va shaxsiy imtiyozlarini hisobga oluvchi ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida “ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish” ustuvor vazifa etib belgilangan. Talabalarning o'quv faoliyatini raqamli ta'lim muhitida motivatsiyalashning falsafiy negizlarini ochib berish, inson-texnologiya-ta'lim munosabatlarini yangi metodologik yondashuvlar asosida talqin qilish zamonaviy pedagogika fani uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur tadqiqot ta'limning insonparvarlik, sub'ekt-sub'ekt munosabatlari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivizm va postneklassik ta'lim paradigmalari bilan uyg'un holda olib borilishi raqamli ta'lim jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Bu esa raqamli jamiyat sharoitida raqobatbardosh, ijtimoiy faol va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi. Shu bois, talabalarning o'quv faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilishning integrativ mexanizmlarini didaktik tizimlar asosida motivatsiyalashning falsafiy negizlarini tadqiq etish zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyoti uchun o'ta dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida”gi, 2019-yil PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2020-yil PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2020-yil PQ-4623-son “Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2020-yil PF-6079-son “Raqamli O'zbekiston - 30” dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2020-yil PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmon va qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik kompetentligini shakllantirish va takomillashtirish, uzluksiz ta'limning turli bosqichlarida o'qitish muammolari bo'yicha J.J.Jalolov, T.Q.Sattarov, G.T.Maxkamova, L.T.Ahmedova, D.U.Xoshimova, E.T.Erkaev, F.B.Azizova, S.A.Ziyaeva, M.Sh.Ro'zmetovalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida Ye.S.Polat, S.V Titova, Arbuzov, P.I.Pidkasistiy, L.F.Kovalev, N.F.Koryakovseva, S.S.Kuklina; zamonaviy metodlar vositasida o'qitish masalalari O.G.Polyanov, B.Ye.Starichenko, M.F.Stroninlar tomonidan tadqiq etilgan. Chesnokov, A.M.Voronin, V.P.Kvasha, V.I.Zibareva tadqiqotlarida ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash, interfaol uslublar orqali shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy darslarni tashkil qilish, mashg'ulotlarda faol ishtirokini ta'minlash kabi masalalar tadqiq etilgan.

Xorij mamlakatlari olimlari: A.Wenden, B.G.Angelopoulos, N.J.Entwistle, D.L.Fried-Booth, R.Gairns, G.S.Ioannidis, N.Bijnens, M.Vanbuel, J.Nisbet bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ustida ilmiy izlanish olib borishgan. Biroq, talabalarning

o‘quv faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilishning integrativ mexanizmlarini didaktik tizimlar asosida motivlashtirishning falsafiy negizlari bo‘yicha tadqiqot ishlarining kamyobligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Talabalarning o‘quv faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning integrativ modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda an‘anaviy pedagogik yondashuvlar raqamli ta‘lim platformalari, interaktiv vositalar va masofaviy ta‘lim elementlari bilan tizimli ravishda uyg‘unlashtirildi.

Integrativ mexanizmlarning tarkibiy tuzilmasi (pedagogik, texnologik, didaktik va motivatsion komponentlar) aniqlashtirilib, ularning o‘zaro funksional bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Raqamli ta‘lim muhitida talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar belgilab berildi hamda ularning ta‘lim samaradorligiga ta‘siri aniqlashtirildi.

Masofaviy va aralash ta‘lim modellarining integrativ qo‘llanilishi asosida talabalarning mustaqil ta‘lim faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari taklif etildi.

Talabalarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish orqali o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqildi.

Asosiy qism. Ta‘lim oluvchilarning o‘quv faoliyati masalasining pedagogik-falsafiy ildizlari Mamlakatimizda oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish, uning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaxshilash borasida olib borilayotgan islohotlar bo‘lajak mutaxassislarining qiziqishlari uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Shu bilan birga o‘quv materialini mustahkamlash va ilgari o‘tilgan materiallarni to‘ldirishga xizmat qiladigan, tahsil oluvchilarning o‘zlashtirilgan bilim va hosil bo‘lgan ko‘nikma, malakalarini hisobga olib borish” vazifalari qo‘yilmoqda.

Bo‘lajak mutaxassislar uchun jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, alohida dolzarflik va ahamiyat kasb etmoqda. Ta‘lim sub’ektlarining bilim olish va bilim berish imkoniyatlarini diversifikatsiya etish jarayonida pedagogik bilimlarni egallash va amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yetakchi oliy ta‘lim muassasalari tomonidan ta‘limni modernizatsiya qilishning asosiy shartlaridan biri sifatida talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar kiritilmoqda. Talabalarning o‘quv faoliyatini tabaqalashtirilgan raqamli vositalar va usullari orqali motivatsiyalash kuzatilmoqda.

XXI asr axborot-kommunikatsiya asrida ma‘lumotlar hajmining keskin ko‘payishi tahsil oluvchilarda o‘quv materialini idrok qilish barobarida uzatilayotgan axborotning sifatiga ham alohida talablar qo‘ymoqda. Shu jihatdan olganda, talabalarning o‘quv faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilishning integrativ mexanizmlarini didaktik tizimlar asosida motivlashtirishning falsafiy negizlarini asoslash, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish alohida e‘tibor talab qilinayotgan masalalar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi PQ-4151-son, hamda 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son qarorlari mamlakatimizda axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishga qaratildi [9,10]. Shu bois, ta‘lim va tarbiya jarayonlarini optimallashtirish uchun ta‘lim sub’ektlari o‘rtasidagi individual va guruh farqlarni o‘rganish, shu asnoda ularni har tomonlama kamol toptirish masalalari alohida o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, tahsil oluvchi shaxsining individual sifatleri va qobiliyatlarini inobatga olish, tahsil oluvchilarning o‘quv faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilishning integrativ mexanizmlarini didaktik tizimlar asosida motivlashtirishning falsafiy negizlarini yoritish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Pedagogik-falsafiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy sharti — o‘rganuvchining ichki motivatsiyasini shakllantirish hisoblanadi. Bu g‘oya o‘z ildizlarini antik davr falsafasiga borib taqaladi. Xususan, Suqrot ta‘lim jarayonini dialogik munosabatlar asosida tashkil etishni taklif etar ekan, bilishga bo‘lgan ehtiyoj insonning ichki ruhiy faolligidan kelib chiqishini ta’kidlaydi. Uning “mayovtika” usuli talabani tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki haqiqatni mustaqil kashf etuvchi faol sub’ekt sifatida shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu holat o‘quv motivatsiyasining falsafiy negizi sifatida qaraladi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik-falsafiy merosida ham o‘quv faoliyati va motivatsiya masalasi alohida o‘rin tutadi. Abu Nasr Forobiy ta’limni insonni kamolga yetkazuvchi asosiy omil sifatida baholar ekan, bilishga bo‘lgan intilishni aqliy va axloqiy fazilatlar bilan uyg‘un holda ko‘radi. Uning fikricha, haqiqiy ta’lim faqat bilim berish bilan cheklanmay, insonda bilishga muhabbat va ma’naviy mas’uliyatni shakllantirishi lozim. Bu esa o‘quv motivatsiyasining chuqur falsafiy mazmunga ega ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur tarixiy-falsafiy qarashlar tahlili shuni anglatadiki, o‘quv faoliyatini motivatsiyalash g‘oyasi zamonaviy pedagogikaning ixtirosi emas, balki ko‘p asrlik intellektual an‘analarga tayanadi. Ushbu an‘analarda ta’lim jarayoni insonning ichki ehtiyoji, ma’naviy kamoloti va faol bilishga intilishi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etilgan (1.1-jadvalga qarang).

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, bugungi raqamli ta’lim muhitida talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etish va motivatsiyalash masalasi ham ushbu pedagogik-falsafiy ildizlar bilan metodologik uyg‘unlikda tahlil qilinishi lozim. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonida yangi vosita sifatida namoyon bo‘lsa-da, ularning samaradorligi aynan tarixan shakllangan motivatsiya va faoliyat g‘oyalari tayanilgan holdagina ta’minlanadi.

1.1-jadval.

Antik va Sharq pedagogik ta’limotlarida o‘quv faoliyatining ichki motivatsiyasi g‘oyalarning raqamli ta’limning falsafiy negizi sifatida shakllanishi

Tarixiy davr / mutafakkir	Asosiy pedagogik g‘oya	O‘quv faoliyati va motivatsiya talqini	Raqamli ta’lim uchun falsafiy ahamiyati
Antik davr			
Suqrot	Dialogik ta’lim, mayovtika	Bilishga qiziqish va ichki faollik orqali haqiqatni kashf etish	Talabning faol subyekt sifatida ishtirok etishi, interaktiv raqamli muhitning falsafiy asosi
Platon	G‘oya va ma’no ustuvorligi	Bilim — ma’naviy kamolotga yetaklovchi ichki ehtiyoj	Raqamli ta’limda mazmun va ma’noni ustuvor qo‘yish, texnologiyaning vosita sifatidagi roli
Arastu	Maqsadli faoliyat va odat	O‘quv faoliyati ongli, maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar orqali shakllanadi	Raqamli ta’limda kompetensiyaviy va natijaga yo‘naltirilgan o‘qitishning falsafiy negizi
Sharq mutafakkirlari			
Forobiy	Aqliy va axloqiy kamolot	Bilish motivatsiyasi aql va axloq uyg‘unligiga asoslanadi	Raqamli ta’limda insonparvarlik va ma’naviy yo‘nalganlikni ta’minlash
Ibn Sino	Bosqichma-bosqich ta’lim va rag‘bat	Qiziqish va rag‘bat orqali bilishga intilishni kuchaytirish	Adaptiv va personallashtirilgan raqamli o‘qitish modellarining falsafiy asosi
Beruniy	Tajriba va kuzatuv	Tabiiy qiziqish va amaliy bilish orqali o‘rganish	Raqamli simulyatsiya, virtual laboratoriya va tadqiqotga asoslangan ta’limning ildizlari

Ushbu jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quv faoliyatining ichki motivatsiyasi g‘oyasi antik va Sharq pedagogik ta’limotlaridayoq shakllangan bo‘lib, zamonaviy raqamli ta’lim mazkur tarixiy-falsafiy g‘oyalarning yangi texnologik shakldagi davomidir.

Pedagogik ta’limotlar tarixi tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘quv faoliyatini tashkil etish va uni motivatsiyalash g‘oyalari ta’lim nazariyasining markaziy muammolaridan biri sifatida turli tarixiy

bosqichlarda izchil rivojlanib borgan. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, inson haqidagi falsafiy qarashlar va ta’lim vositalarining o’zgarishi bilan uzviy bog’liq bo’lgan.

Antik davr pedagogik-falsafiy qarashlarida o’quv faoliyati insonning tabiiy bilish ehtiyoji bilan bog’lab talqin qilingan. Suqrot ta’limni muloqot va fikrlash faoliyati sifatida tashkil etib, talabada bilishga bo’lgan ichki ehtiyojni uyg’otishni asosiy maqsad deb bilgan. Bu yerda motivatsiya tashqi ta’sir vositasi emas, balki inson ongining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralgan. Platon ta’limni ruhiy kamolotga olib boruvchi jarayon sifatida ko’rib, bilim olishni ma’naviy maqsadlarga intiluvchi faoliyat sifatida talqin etgan. Arastu esa o’quv faoliyatini maqsadga yo’naltirilgan, tizimli va ongli harakatlar majmui sifatida asoslab bergan.

O’rta asr Sharq pedagogik ta’limotlarida o’quv faoliyatini tashkil etishda aqliy tarbiya, axloqiy kamolot va bilishga bo’lgan qiziqishning uyg’unligi ustuvor bo’lgan. Forobiy ta’limni insonni komillikka yetkazuvchi faoliyat sifatida baholab, o’quv faoliyatining samaradorligini ichki ma’naviy rag’bat bilan bog’lagan. Ibn Sino ta’lim jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, o’quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish va rag’batlantirish orqali bilishga qiziqishni oshirish g’oyasini ilgari surgan. Beruniy esa kuzatuv va tajribani o’quv faoliyatining asosiy usuli sifatida ko’rib, bilishni faol amaliy jarayon sifatida asoslagan.

Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida o’quv jarayonining samaradorligi texnik imkoniyatlar yoki axborot resurslarining ko’pligi bilan emas, balki talabaning bilish jarayoniga ongli va ixtiyoriy ravishda jalb etilganligi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, o’quv faoliyatining ichki motivatsiyasi raqamli ta’lim tizimining faqat psixologik emas, balki falsafiy negizi sifatida namoyon bo’ladi. Chunki raqamli ta’lim inson, bilim va texnologiya o’rtasidagi munosabatlarni qayta talqin qilishni talab etadi.

Falsafiy jihatdan ichki motivatsiya insonning bilishga bo’lgan tabiiy ehtiyojidan, ma’no izlashga qaratilgan ongli faolligidan kelib chiqadi. Bu holat ekzistensial falsafa va gumanistik pedagogikada insonni o’zini anglashga intiluvchi sub’ekt sifatida ko’rish g’oyasi bilan uyg’un. Raqamli ta’lim muhitida esa talaba tayyor bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki axborot makonida mustaqil harakat qiluvchi, tanlov qiluvchi va ma’no yaratuvchi sub’ekt sifatida ishtirok etadi. Demak, raqamli ta’limning markazida texnologiya emas, insonning ichki bilish motivatsiyasi turadi.

An’anaviy ta’lim modellarida ko’p hollarda tashqi motivatsiya — baholash, nazorat, majburiyat ustuvor bo’lgan bo’lsa, raqamli ta’lim paradigmasi o’quv faoliyatining ichki motivatsiyasini rag’batlantirishga yo’naltirilgan. Chunki raqamli muhitda talabaning faolligi majburiy nazorat orqali emas, balki qiziqish, shaxsiy ma’no va mustaqillik orqali ta’minlanadi. Bu holat konstruktivizm va postneklassik ta’lim falsafasiga mos kelib, bilimni tayyor holda uzatish emas, balki uni o’rganuvchi tomonidan faol ravishda qurish g’oyasini ilgari suradi.

Ichki motivatsiya raqamli ta’limda didaktik tizimlarni integratsiyalashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki raqamli platforma, multimedia, virtual muhit yoki sun’iy intellekt vositalari faqat shunda samarali ishlaydiki, agar talaba ulardan foydalanishga ichki ehtiyoj sezsa. Aks holda, raqamli texnologiyalar o’quv jarayonida formal vositaga aylanib qoladi. Shu ma’noda, ichki motivatsiya texnologiyani ta’limiy qadriyatga aylantiruvchi falsafiy omildir.

Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, raqamli texnologiyalar o’quv faoliyatida yangi mediator (vositachi) sifatida ishtirok etadi. Biroq ushbu vositachilik faqat talaba ongida ma’no paydo bo’lgandagina amalga oshadi. Ma’no esa tashqi ta’sir orqali emas, balki ichki motivatsiya orqali shakllanadi. Demak, raqamli ta’limda o’quv faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi texnologiya emas, balki inson ongidir.

Shu bilan birga, faoliyat nazariyasi (A.N.Leontev) nuqtayi nazaridan raqamli ta’lim muhitida harakatlarning barqarorligi motivga bog’liq. Agar motiv tashqi bo’lsa, o’quv faoliyati vaqtinchalik va yuzaki xarakter kasb etadi; agar motiv ichki bo’lsa, ta’lim jarayoni shaxs rivojlanishining barqaror mexanizmiga aylanadi. Bu esa raqamli ta’limni faqat axborot uzatish tizimi emas, balki shaxs rivojlanishining falsafiy makoni sifatida talqin qilish imkonini beradi.

O’quv faoliyatining ichki motivatsiyasi raqamli ta’limning falsafiy negizi sifatida quyidagi jihatlarda namoyon bo’ladi: birinchidan, u ta’lim jarayonida insonni markaziy qadriyat sifatida

belgilaydi; ikkinchidan, bilimni ma’no yaratish jarayoni sifatida talqin qiladi; uchinchidan, raqamli texnologiyalarni inson rivojlanishiga xizmat qiluvchi vositaga aylantiradi. Shu sababli, raqamli ta’limni ilmiy-falsafiy jihatdan asoslashda o’quv faoliyatining ichki motivatsiyasini tahlil qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda raqamli ta’lim ko‘pincha ta’lim tizimidagi tub yangilik sifatida talqin qilinadi. Biroq pedagogik ta’limotlar tarixi nuqtayi nazaridan qaralganda, raqamli ta’lim mustaqil va uzil-kesil yangi fenomen emas, balki asrlar davomida shakllangan pedagogik g‘oyalari, didaktik prinsiplar va ta’lim falsafasining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat raqamli ta’limni ilmiy jihatdan to‘g‘ri baholash va uning metodologik asoslarini chuqur anglash imkonini beradi.

Tarixiy jihatdan olib qaralganda, har bir pedagogik yangilanish jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Masalan, Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan didaktik tizim bosma kitob va maktab ta’limining ommalashuvi sharoitida shakllangan bo‘lib, unda ko‘rgazmalilik, tizimlilik va bosqichma-bosqichlik tamoyillari asosiy o‘rin tutgan. Bugungi raqamli ta’limda qo‘llanilayotgan multimediali materiallar, vizual simulyasiyalar va interaktiv platformalar aynan shu klassik didaktik g‘oyalarning zamonaviy texnologik shakli sifatida talqin qilinishi mumkin.

J.J.Russoning tabiiy ta’lim g‘oyasi va o‘quvchining faolligini ustuvor qo‘yish tamoyili ham raqamli ta’lim konsepsiyasi bilan chuqur uyg‘unlikka ega. Russo ta’lim jarayonini bolaning ichki rivojlanish qonunlariga mos holda tashkil etishni talab etgan bo‘lsa, raqamli ta’lim muhitida ham talabning individual traektoriyasi, mustaqil tanlovi va shaxsiy sur‘ati markaziy o‘rin tutadi. Bu yerda texnologiya yangi maqsad emas, balki tabiiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi vosita vazifasini bajaradi.

XIX–XX asr pedagogik ta’limotlarida shakllangan faoliyatga asoslangan ta’lim g‘oyalari raqamli ta’lim uchun muhim nazariy zamin yaratgan. I.Pestalotssi, K.Ushinskiy, J.Dyui kabi mutafakkirlar ta’limni faqat bilim berish jarayoni emas, balki o‘quvchining faol amaliy va intellektual faoliyati sifatida talqin qilganlar. Ayniqsa, Dyuning “learning by doing” konsepsiyasi raqamli ta’lim muhitida virtual laboratoriyalar, trenajyorlar, simulyasiya va loyihaga asoslangan o‘qitish orqali o‘zining mantiqiy davomini topmoqda.

Noklassik va postneklassik pedagogik nazariyalarda (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, J.Piaje) ta’lim ijtimoiy-madaniy jarayon, bilim esa faoliyat va muloqot mahsuli sifatida qaraladi. Ushbu nazariyalarda vositachilik (mediator) tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar esa aynan shu vositachilik funksiyasini zamonaviy shaklda bajarib, tarixiy pedagogik g‘oyalarning yangi texnologik bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, pedagogik ta’limotlar tarixida doimo ta’limni individuallashtirish, differentsiyalash va integratsiyalash g‘oyalari mavjud bo‘lgan. Raqamli ta’lim esa ushbu g‘oyalarni amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu holat raqamli ta’limni pedagogik tafakkurning uzviy rivoji sifatida baholashga asos bo‘ladi.

Yangi davr pedagogik ta’limotlarida o‘quv faoliyatini tashkil etish masalasi tizimli didaktik asosga ega bo‘la boshladi. Ya.A.Komenskiy ta’limni umumiy qonunlarga bo‘ysunuvchi yaxlit tizim sifatida ko‘rib, ko‘rgazmalilik, izchillik va onglilik tamoyillarini ilgari surdi. Bu g‘oyalari o‘quv faoliyatini tashkil etishda tashqi shart-sharoitlarni to‘g‘ri yaratish orqali ichki motivatsiyani shakllantirish mumkinligini ko‘rsatdi. J.J.Russo esa o‘quv faoliyatini tabiiy rivojlanishga mos holda tashkil etish, o‘quvchining faolligini ta’minlash orqali uning bilishga bo‘lgan qiziqishini saqlab qolish zarurligini ta’kidladi.

Zamonaviy pedagogik ta’limotlarda esa o‘quv faoliyatini tashkil etish va motivatsiyalash shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida qaralmoqda. Raqamli ta’lim muhitida bu g‘oyalari yangi texnologik shakl kasb etgan bo‘lib, talabning mustaqilligi, ichki motivatsiyasi va bilish faolligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu holat pedagogik ta’limotlar evolyusiyasida o‘quv faoliyatini tashkil etish g‘oyalari doimiy ravishda insonning faol sub’ekt sifatidagi rolini kuchaytirish yo‘nalishida rivojlanganini ko‘rsatadi.

Talabalar o‘quv faoliyatini tashkil etish va motivatsiyalash g‘oyalari pedagogik ta’limotlar tarixida tashqi nazorat va majburiyatga asoslangan modellardan ichki ehtiyoj, ma’no va faoliyatga tayanadigan gumanistik modellarga tomon evolyusiya qilgan. Raqamli ta’lim tizimlarining shakllanishi ko‘p hollarda yangi texnologik inqilob mahsuli sifatida baholansa-da, pedagogik ta’limotlar tarixi nuqtayi nazaridan qaralganda, ular klassik va noklassik pedagogik nazariyalarda ilgari surilgan g‘oyalarning zamonaviy shakldagi ifodasidir. Shu ma’noda, raqamli didaktik tizimlar ta’lim nazariyasidagi uzilish emas, balki pedagogik tafakkur evolyusiyasining mantiqiy va falsafiy uyg‘un davomidir.

An’anaviy pedagogik nazariyalarda ta’lim yaxlit, maqsadga yo‘naltirilgan va tizimli jarayon sifatida qaralgan. Ya.A.Komenskiy tomonidan asoslab berilgan didaktik tizimda ta’lim mazmuni, usullari va vositalari o‘zaro bog‘liq holda tashkil etilishi lozimligi ta’kidlangan. Uning ko‘rgazmalilik, onglilik va izchillik tamoyillari bugungi raqamli ta’limda multimediali kontent, interaktiv vizual modellar va modulli o‘qitish orqali amalga oshmoqda. Bu holat raqamli didaktik tizimlarning klassik didaktik g‘oyalar bilan falsafiy uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, pedagogikada o‘qituvchi bilim manbai va ta’lim jarayonini tashkil etuvchi markaziy sub’ekt sifatida qaralgan bo‘lsa, raqamli ta’limda mazkur rol transformatsiyaga uchraydi. Biroq bu transformatsiya klassik nazariyalarni inkor etmaydi, balki ularni yangi shart-sharoitlarda qayta talqin qiladi. Masalan, Komenskiyning “tabiyatga muvofiqlik” tamoyili raqamli ta’limda talabaning individual sur’ati, o‘quv traektoriyasi va kognitiv xususiyatlarini hisobga olish orqali o‘zining zamonaviy ko‘rinishini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdumo‘minov B.S., Eshboyev U.S. (2025). Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalar. Ta’lim Innovatsiyasi va Integratsiyasi — Raqamli ta’lim vositalarining zamonaviy ta’lim muhitida qo‘llanilishi va pedagogik oqibatlarini tahlil qilingan.

2. Qlicheva G.C. (2025). Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning pedagogik asoslari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari — Mustaqil ta’lim va raqamli platformalarning talabalarning o‘quv faolligiga ta’siri yoritilgan.

3. Murodov O.T. (2024). Raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish usullari. The latest pedagogical and psychological innovations in education. — Ta’lim jarayonida digital vositalarni samarali qo‘llash usullari ko‘rib chiqilgan.

4. Cheng X. (2025). Digital learning in the 21st century: trends, challenges, and innovations in technology integration. *Frontiers in Education*. — Raqamli o‘qitishning global tendensiyalari, xususan oliy ta’limda o‘quvchi markazida orientatsiyalangan yondashuv bo‘yicha keng ko‘lamli sharh.

5. Gódska M. (2025). Engaging students in higher education with educational technologies: evidence-based recommendations. — Talabalarni raqamli texnologiyalar orqali jalb qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar.

6. Uzorka A. & Odebiyi O.A. (2025). Impact of Digital Learning Tools on Student Engagement and Achievement. *Journal of Digital Learning and Distance Education* — Digital vositalarning oliy ta’limda talabaning ishtiroki va yutug‘iga ta’siri tahlili.

7. Akhmetzhanova G., Zhanzhigitov S., Bermukhambetova B. & Zhailauova, M. (2025). The Impact of Digital Technologies on Students’ Independent Learning Development. *IJDET*. — Raqamli texnologiyalar orqali talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot.

8. Emerging Directions in Education and Information Technologies following the Covid-19 Pandemic. *Education and Information Technologies*, 29 (2024). — Pandemiya davridan keyin o‘quvchilarning raqamli muhitda o‘rganish tajribalari va tendensiyalari sharhi.


MUNDARIJA:

Qurbonov G‘ulomjon G‘afurovich Ochilboyeva Maftuna Dilshod qizi	<i>Matematik ta’limda differensial yondashuv tushunchasi va uning shakllanishining hozirgi holati</i>	6
Xusanova Gulasal Shuhratjon qizi Husanboyeva Xurshidabonu Muhammadamin qizi	<i>Axborot texnologiyalarining chet tilini o‘qitish metodikasidagi o‘rni va ahamiyati</i>	10
Nasirdinova Gulshoda Donyorbek qizi Abdumalikova Marjona Doniyorjon qizi	<i>Kollaborativ o‘qitish texnologiyasi “boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” faniga tatbiq etish imkoniyati</i>	13
Alimdjanova Dilbar Negmatovna	<i>Jamoat salomatligini fanini o‘qitishda mualliflik pedagogik texnologiyalari</i>	18
Raximova Nasiba Nuriddinovna	<i>O‘smirlarda agressiya muammosini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari</i>	22
Bozorova Nazokat Mamasoatovna	<i>Tarixiy podkastlar va videobloglar o‘quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish shakli sifatida</i>	26
To‘rayeva Dilovar Naimovna	<i>Kichik yoshdagi o‘quvchilarning badiiy asarni tahlil etishdagi psixologik xususiyatlari</i>	30
Bobomurodova Mahzuna Ortiq qizi	<i>Gidronimlarda geografik va tarixiy omillarning aks etishi</i>	33
Giyasova Zuxra Raxmatullayevna	<i>Gaz molekulalarining tezliklar bo‘yicha taqsimoti: desmos yordamida raqamli vizualizatsiya va didaktik imkoniyatlar</i>	36
Bekimbetova Gulnaz Nabatovna	<i>Methodology for using educational materials on natural resources in theoretical classes</i>	43
Narmuradova Rayhon Uktamovna	<i>Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini psixologik tahlilga o‘rgatishning ahamiyati</i>	48
Itolmasova Nafisa Furqatovna	<i>Kasbiy qobiliyat tushunchasi va uning psixologik asoslari</i>	51
Yunusova Sohiba Abdulmamidovna Raxmataliyeva Marjona Xurshidjon qizi	<i>Jarayonlarni boshqarishda rejining va kaizen uslublari asosida samaradorlikni oshirish</i>	54
Narmuradova Rayhon Uktamovna	<i>Jinoyat sodir etishda affekt holatining psixologik va huquqiy bahosi</i>	57
Ismatova Kamola Azizjon qizi	<i>Bola psixik taraqqiyotida oilaning ahamiyati</i>	60
Ochilova Mexrubon Syratovna	<i>Значение курсов повышения квалификации учителей цифровой грамотности и применению образовательных платформ на уроках географии</i>	64
Sirojov Otajon Orifjonovich	<i>Talabalarning o‘quv faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilishning integrativ mexanizmlarini takomillashtirish</i>	69
Islomov Nurtoy Nomoz o‘g‘li	<i>Talabalarda atamalar bilan ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish</i>	76

Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	<i>Ingliz tili o‘qitishda o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyani rivojlantirish metodlari tahlili</i>	80
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	<i>Maktabdan tashqari ta‘lim strategiyalari: istiqbolli yo‘nalishlar, strategik rejalashtirish va amaliy tadqiqotlar</i>	84
Ibodulloyev Nurali Sheraliyevich	<i>Raqamli texnologiyalardan foydalanishning ta‘lim jarayonidagi o‘rni</i>	88
Odamova O‘g‘iljon Kenjayevna	<i>Ta‘lim muassasalarida psixologik xizmatning samaradorligini oshirishda ertak terapiyasining o‘rni</i>	91
Shikarov Tolib Tavakalovich	<i>Raqamli pedagogikada adaptiv ta‘lim texnologiyalari: talabalarning individual ehtiyojlarini qondirish va o‘quv samaradorligini oshirish</i>	95
Raximov Azizbek Normurodovich	<i>Jadid munavvarlar faoliyatida vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik mohiyati</i>	99
Shomurodova Nozima Baxriddin qizi	<i>Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili</i>	104
Xolmirzayeva Shahnoza Majidovna	<i>Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillik va ijodiy tashabbusni rivojlantirishning pedagogik asoslari</i>	108
Tangirov Farxodjon Mamatyakubovich	<i>Loyihaga asoslangan faoliyatning o‘quvchilar meta-fan kompetensiyalari va texnologik madaniyatini rivojlantirishga ta‘siri</i>	112
Rasulov Rustambek Odilovich Xoshimov Mirjalol Murodjon o‘g‘li	<i>Xalqaro aloqa: mohiyati, rivojlanishi, va zamonaviy tendensiyalar</i>	119
Baratova Nozima Xidirova Gavhar Rustamovna	<i>Raqamli texnologiyalar asosida barqaror turizmni rivojlantirish istiqbollari</i>	123
Urazaliyeva Dilraboxon Nishonboyevna	<i>O‘smirlarda suisid xavfining bio-psixo-fiziologik mexanizmlari: masofaviy psixogen ta‘sir sharoitida tibbiy-psixologik yondashuv</i>	129
Kurbonov Munis Ro‘zmetova Muhabbat	<i>Ta‘lim jarayonida pedagogik yondashuv axborotlashtirishning ahamiyati</i>	137
Farmonova Dildora Sobirovna	<i>Nogiron bolalarning jamiyatga moslashuvdagi to‘siqlar</i>	140
Axmadova Gulbashakar Azizbekovna	<i>Erta bolalikda emotsional befarqlikning oqibatlari</i>	143
Tojiboyev Ziyodilla A‘zamjon o‘g‘li	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari</i>	147
Umaraliyeva Hilola Fazliddin qizi	<i>Talabalarning kommunikativ kompetentligi guruhiiy o‘zaro ta‘sir samaradorligining prediktori sifatida</i>	149
Kozieva Ikbol Komilzhonovna	<i>Onomastics funktsions</i>	153
Ismatova Dilafruz To‘ymuratovna	<i>Zamonaviy jamiyatda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi: an‘anaviy modeldan individualistik modelga o‘tish jarayoni</i>	156
Ziyadilloeva Malikabonu Abdulloyevna	<i>Approaches to studying individual soldier performance and group interaction in the armed forces</i>	160

Ashrapov Nodirbek Namoz o'g'li	<i>O'smirlik davrida kognitiv jarayonlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-muhit omillari va ularning shaxs kamolotidagi ahamiyati</i>	164
Hamroyev Jasur Umedovich	<i>Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalarning innovatsion tafakkuri va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari</i>	169
Axmadov Nazirjon Rahmat o'g'li	<i>Social and psychological factors in the development of positive behavior in adolescents</i>	173
Rustamov Shavkat Shuxratovich	<i>Pedagogical and psychological approaches to developing students' innovative competence</i>	177
Назаров Акмал Мардонович	<i>Психологические факторы развития креативного мышления и инновационного подхода у студентов</i>	180
Ганджиев Феруз Фуркатович	<i>Проявления агрессии среди подростков в социальных сетях и их психологические последствия</i>	184
Дехконбоев Шохжахон Ойбекович	<i>Методы и подходы судебно-психологической экспертизы при оценке эмоционального состояния личности</i>	189
Zoirov Abduqodir Askarovich	<i>Talabalarda diqqat sifatлари rivojlanishining psixologik determinantlari</i>	193
Xolmo'minova Yasmina Ma'murjon qizi	<i>Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda individual ta'lim dasturlarining samaradorligi</i>	197
Khusanova Gulasal Shuhratjon kizi, Fozilova Shakhzoda Aslam kizi	<i>Comparison of the effectiveness of online and offline learning</i>	200
Raximova Moxinora Xoshimjanovna Ibrohimova Feruzabonu Ilyosbek qizi	<i>Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi taraqqiyotining ayrim masalalari</i>	203
Шарипова Умида Шавкат кизи	<i>Факторы и проблемы исследования гендера в социолингвистике</i>	206
Тагирова Муштарий Махсудовна	<i>Своеобразные черты литературных и публицистических трудов джадидов</i>	209
Narziyeva Husnora	<i>Norasmiy savdoning shahar iqtisodidagi o'rni</i>	212
Xomidova Mahliyo Akobir qizi	<i>Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar, ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari</i>	216
To'raqulova Nargiza Ali qizi	<i>Yozuvning vujuga kelishi va tilshunoslikdagi ahamiyati</i>	219
Qovlonbekov Abdulaziz Abdullajon o'g'li.	<i>Para sportchilarni qo'llab quvvatlashning ijtimoiy psixologik determinatlari (o'smir yoshidagi parasportchilar misolida).</i>	222
Diyorbek Abrayev Mamarajab ogli	<i>Translation of culturally-bound words from english into uzbek: challenges and strategies</i>	225
Sharipova Shukronaxon Baxtiyorjon qizi	<i>O'zbek xalq og'zaki ijodi va uni maktabgacha yoshdagi bolalar emotsional intellektini rivojlantirishda qo'llashning psixologik asoslari</i>	228

Rahmatova Nasiba Sobirovna	<i>Gender psixologiyasida jinsiy farqlanish muammolarini tahlil qilishda erkaklar va ayollarning rollari</i>	231
Ro‘ziyev Ulug‘bek Muzzafarovich	<i>O‘smirlardagi emotsional zo‘riqishlar va ularni kelib chiqish sabablari</i>	238
Mirzayeva Dilshoda Ikromjonova Sayfidinova Aziza Tolibovna	<i>O‘zbek va ingliz leksikasida nabotot obrazlarining metaforik talqini</i>	242
Qodirova Dilnoza Murtazoyevna	<i>Talabalarda professional identifikatsiya jarayonining psixologik determinantalari</i>	244
Tajibayev Shohruh Maqsudovich	<i>The influence of psychological characteristics on guides’ communicative skills and their professional significance</i>	251
Sharopov Suxrob Shodi o‘g‘li	<i>O‘smirlarda refleksiv xususiyatlar va tanqidiy fikrlash o‘rtasidagi bog‘liqlik</i>	256






“ACADEMIC SPECTRUM”

ILMIY METODIK JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

-  ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
-  maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 3-8 betgacha;
-  maqola nomi, annotatsiya (50-60 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-

10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma‘lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Anti plagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezisleri va ma‘ruzalari chop etilmaydi. E‘lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.

Buxoro

2026. № 2-Son.